

ISTE'DOD JOZIBASI VA YOZUVCHI MAHORATI

Fozilova Husnida Tohirjon qizi,
IV Farg'ona akademik litsey o'quvchisi

Nasriy asarlarda voqelikni ifoda qilishda muallif nutqi bilan bir qatorda personaj nutqi ham katta ahamiyat kasb etadi. Personaj nutqining an'anaviy ko'rinishlaridan biri esa hech shubhasiz dialogdir. Shuning uchun nasriy asarlarda qahramonlar ruhiyatini ochib berish, ularda tilga olingan hayotiy holatlarning ruhiy asoslarini ko'rsatish maqsadida dialoglardan keng foydalaniladi. Dialoglarning asar matniga kiritilishi undagi voqelikni dramatik asarlardagi singari jonli va harakatga berish imkoniyatini kengaytiradi, ya'ni kitobxon voqea haqida muallifning bayoni orqaligina malumot olmay go'yo sahna asarini tomosha qilayotgandek, asar voqealari uning ko'z o'ngida kechayotgandek bo'ladi, natijada unga qiziqishi ortadi, asar mazmun-mohiyatini, yozuvchi tomonidan asar markaziga qo'yilgan muamollarni chuquruq anglash imkoniyati tug'iladi. Mahorat bilan ko'rilgan dialoglar yordamida asardagi har bir personaj nutqini individuallashtirish, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyati haqida o'quvchiga ko'p narsalarni yetkazish imkoniyatlari kengayadi, voqelikni himoy qilishning samarali usullaridan bo'lgan polifoniya (ko'povozlilik) vujudga keladi. Shu o'rinda polifonik nutq imkoniyatlarini keng tadqiq etgan adabiyotshunos olim Y. Solijonovning Xurshid Do'stmuhammad qalamiga mansub «Bozor» romani haqidagi fikrlari juda o'rinlidir: «Yozuvchi romanda ilgari surayotgan g'oyaviy niyatlarini asosan qahramonlar so'zi zimmasiga yuklaydi... Buning uchun muallif asosan dialogga murojaat qiladi. Natijada hamma masala dialogga, dialogik ziddiyat bilan to'ydirilgan markaziy nuqtaga borib taqaladi. Roman syujeti va kompozitsiyasi, qahramonlar qiyofasi, yozuvchining niyati — barchasi vosita bo'lib, faqat bosh maqsadga — dialogga intiladi. Chunki yozuvchi uchun bitta ovoz hech narsani hal qilolmaydi. Hayotdagi ikkita ovoz esa, to'la bo'lmasa-da, maishiy-ijtimoiy turmush to'g'risida hukm chiqarishga haqlidir. Asosiy masala ko'pchilikning munosabati, qarashlari mujassamlashgan ko'povozli nutqda hal etiladi. Shuning uchun ham dialog imkoniyatlari tugunmas ekanligini yozuvchi to'la anglab yetadi va undan umumiy foydalanishga harakat qiladi.»¹

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning asarlari ham polifonik xususiyatlari bilan ajralib turadi. U o'z asarlarida dialoglardan o'rinli va unumli foydalana olgan

adiblar sirasidadir. Dialog adibning qator romanlari va hikoyalarda g'oyaviy-estetik maqsadini ochib berishdagi juda muhim bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Uning «O'zbeklarlar» hikoyasi ham bundan mustasno emas. Hikoyada unga yaqin dialog berilgan bo'lib, ularning har biri asarda bayon qilingan asosiy muammoni ochib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Undagi dastlabki dialog Otinoyi (Iskandar Vahobovichning onasi) qo'shnilar Bahri xola, Muattar xola, «Kelinposhsha»lar bilan bo'lgan suhbat asosida ko'rilgan. Adib o'ta jonli va tabiiy kechgan bu suhbat mazmuniga o'zbek ayollari – onalarga xos fazilatlarni ustalik bilan singdirib yubora olgan. Har bir o'zbek ayoli yoshi o'tgani sayin o'zining o'limi haqida o'ylay boshlaydi va bu ularni cho'chitmaydi, aksincha, ular tomonidan tabiiy bir hol sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun o'sha kunga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Hikoyaning bosh qahramoni Otinoyi xuddi ana shunday onaxonlardan biri. Dialog uchun o'z o'limliklarini qo'shnilarga ko'rsatish bilan boshlanad.

« Otinoyi sandiqdan birma-bir o'limtiklarini olib to'nlarini «ko'z-ko'z» qilayapti», - deb yozadi adib uni boshlashdan oldin. «Ko'z-ko'z» qilish bor bisoti bilan maqtanish emas, balki o'sha damda hoziru nozir bo'ladagan qo'shnilar shoshib qolmasliklari uchun ularni oldindan ogohlantirib qo'yish maqsadida o'tkazilyapti, lekin Otinoyiga ham onalarga xos fahrlanish begona emas:

– Mana bu – kafanlik, – deydi u bejirim qilib o'ralgan dokani ko'rsatib.

Muattar xola dokaning bir uchini chimchilab ko'rdi.
– Yaxshi, miskoli doka ekan.

-Iskandarmi ataylab Maskvadan olib kelgan - otinoyi kerib qalddini rostlaydi. – Mana buni yirtishga berasizlar. -U tag'in bir tugunni ochdi. – Ammo-lekin ro'mollardan sal ko'nglim to'lmay turibdi.Hammasi bir xil bo'lgani yaxshi. Mana, o'ttiztasi ko'k, yigirmattasi moshrang. Mayli, Iskandarimga aytaman, olib beradi.²

Otinoyi xarakteriga xos eng muhim qirralardan biri shuki, u hech qachon o'g'lini boshqalar oldim yomonlamaydi. Uning har qanday ayblarini kechiradi, doim sog'inib yashaydi. O'li uch oy oldin kelib ketgan bo'lsa ham, kecha kelib ketgan deb o'zini ishiontiradi, hech qachon undan gina qilmaydi. Otinoyining dilidagi eng kata armon nevara ko'rmaganligi. U o'zining bu orzusiushalishi uchun hamma narsalarga tayyor. Shuning uchun ham uzoq umr va nevara to'ylar qilishini tilagan qo'shnilaridan eng qimmatbaho narsasini – o'g'li olib kelgan «polskiy sovunni» ham ayamaydi:

– Xudo Iskandarimga ham qo'chqordek o'g'illar bersa ajabmas. Kecha ham kelib ketdi, bolam boqish. – Otinoyi sandig'ini qaytadan titkiladi. – Mana, – deydi.

Ikki dona yaltiroq qog'ozli sovunni olib, polcha degan joydan mozor bosib kelgan. Iskandarim obkeldi.

U sovunning bittasini Bahri xolaga, bittasini Muattar xolaga beradi.

– Voy, munchayam yaxshi! – Muattar xola «polskiy» sovunni huzur qilib hidlaydi. Bahri xola ham hidlayotganiga Muattar xoladan dashnom eshitiladi.

– Is bilmaysiz-ku, hidlab nimaning farqiga bordingiz...

– O'glimni duo qilinglar, – deydi Otinoyi astoydil yalinib. – O'zidan ko'paygan denglar, yaxshi farazandlar bo'lsin denglar.

Adib onaning har bir so'zga alohida e'tibor qaratadi. Otinoyi, o'g'lini tilga olar ekan Iskandar deb emas, albatta, Iskandarim deb ataydi. Bu unchalik ahamiyatga ega emasdek tuyulsa-da, aynan ana shu bittagina onaning farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbati, faxri-g'ururi, uni yer-u ko'kka ishonmasligining yorqin ifodasidir.

O'tkir Hoshimov hikoyadagi emotsionallikni, ya'ni boshqalarni tushunish uchun qahramonni dialogga dramatik asarga xos sahna-epizodik tus bergan, ya'ni unda muallif dialoglarning kesimi hozirgi kelajak zamon shaklida ifodalanishi kechayotgan voqeani o'quvchi qalbiga jonlantirish, personajlarning gap ohangi eshutilishiga olib kelgan. Natijada o'quvchi personajlarni ko'ra olishi va hatto nutqi ohangini his etish imkoniga ega bo'lgan, bu esa o'quvchining ular ruhiyatiga kirishi hikoyadagi tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlar munosabatlar mohiyatini chuqur anglashiga olib kelgan.

Hikoyada xarakter ruhiyatini ochish, obraz yaratishning muhim vositalaridan biri sifatida ham dialogning mavqei kuchli. Adib har bir personaj tuyg'usi, individualligini ifodalash uchun shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy qarashlari ruhiyati haqida o'quvchiga ko'p narsalarni yetkaza olgan hamda har bir obrazning to'laqonli, jonli chiqishini ta'minlagan. Adib dialoglarda personaj nutqini unung holati, o'sha paytdagi vaziyat va boshqalar haqidagi qisqa, lo'nda sharhlar bilan boyitib boradi va bu malumotlar dialoglarda juda katta ahamiyat kasb etadi. Iskandar obrazni o'ziga xosligini ko'rsatuvchi dialog misolida buni ko'rish mumkin:

– Kim o'zi bu? – dedi Iskandar Vahobovich qoni qaynab.

javob o'rniga yana savol eshitildi.

– Iskandarmisan?

– Ha. o'zingiz kimsiz?

go'shak yana jiringladi.

– Xolmatman! Qo'shning...

Iskandar Vahobovich beixtiyor qo'shnilarini bir-bir eslab ko'rdi, Xolmat degan qo'shnisi yo'q. Jinni bo'lganmi bu odamlar?!

– Qiladigan ishingiz bo'lmasa, telefonni joyiga qo'ying!

Shunday deb endi go'shakni uloqtirmoqchi edi, boyagi ovoz yana shang'iladi:

– Otinoyining ahvoli og'ir!

Iskandar Vahobovich esankirab qoldi. Axir Otinoyi... o'zining onasi-ku!

Bo'ldi-bo'ldi! Xolmat aka ularning devor-darmiyon qo'shnisi. Provodnik.

– Nima bo'ldi?! – dedi birdan yuragiga g'ulg'ula tushib. – Oyimga nima bo'ldi?!

– Ahvoli og'ir.

– Shoshmang hozir «skoriy» chaqiraman.

– «Skoriy»ni nima qilasan? – Xolmat aka tag'in baqirdi. – O'zing kel, tezroq!

Telefon uzilib «tut-tut-tut» degan qisqa tovush eshitila boshladi. Iskandar Vahobovich ichida bir narsa uzilib ketgandek bo'ldi. Nahotki onasi...!

Yuqorida keltirilgan parchada yozuvchi dialogning ikki xil turi: tashqi va ichki dialoglardan unumli foydalana olgan. Bu hol muallif shaxsining qisman dialogga singdirib yuborilishiga olib kelgan. Adib o'zi aymoqchi bo'lgan gaplarini ham Iskandar tilidan aytib uning ruhiy holati va so'zlovchiga munosabatini yanada yorqinroq ifodalashga erishgan.

Hikoyadagi har bir dialog unda ishtirok etuvchi personajlarning o'zaro munosabati, axloqiy-estetik qarashlari, hayotga, atrofida qilargalarga munosabatini, o'zbekona mehr-muruvvat, hurmat-ehtirom, soddalik va mardlik kabi xususiyatlarni ochib berishda juda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi har bir personaj nutqini individuallashtirishga alohida e'tibor qaratgan va haqiqiy o'zbekona hayotning real badiiy manzarasini yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Solijonov y. hajviyatning sinchkov ko'zlari. alisher navoiy nomidagi o'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2009. 153 – 154-b.
2. Hoshimov O'. O'zbeklar. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2008. 33-b.